

TALABALARDA O‘Z-O‘ZIGA BAHO BERISHNING O‘QUV FAOLIYATGA TA’SIRI

Nazirqulova Nodira G‘anijanovna

Xalqaro Nordik Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning malakaviy o‘quv amaliyotida bajariladigan ishlar tartibi berilgan. Ular quydagilardan iborat: Talaba amaliyot davrida tashkilot ichki intizomi qoidalariga rioya qilishi, amaliyot dasturida ko‘rsatilgan barcha topshiriqlarni to‘la bajarib borishi, amaliyot daftoriga kunlik bajarilgan ishlarni qayd etib borishi va amaliyot xisobotini tuzish va uni ximoya qilishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: amaliyot, talaba, tashkilot, xisobot, amaliyot dafatari, o‘z-o‘ziga baho , stajirovka, oliy ta’lim

Аннотация. В данной статье приведен порядок работы, выполняемой в квалификационной учебной практике студентов. Они состоят из: студента информируют о том, что в период практики он соблюдает правила внутренней дисциплины организации, в полном объеме выполняет все задания, указанные в программе практики, ежедневно записывает выполненную работу в тетрадь практики, составляет отчет о практике и защищает его.

Ключевые слова: стажировка, студент, организация, отчет, тетрадь стажировки, самооценка, стажировка, высшее образование

Abstract. This article describes the order of work performed in the qualification educational practice of students. They consist of: the student is informed that during the internship period he complies with the rules of internal discipline of the organization, fully performs all the tasks specified in the internship program, writes down the completed work daily in the practice notebook, compiles a practice report, and defends it.

Keywords: internship, student, organization, report, internship notebook, self-assessment, internship, higher education

Kirish. Yuqori kompetentga va bilimga ega bo'lgan pedagoglarni yetishib chiqishi uchun muhim vazifani amalga oshirishni taqazo etadi. Bunda yalpi ta'lim va tarbiya tizimini, uning murakkab qismlaridan biri pedagogik amaliyotni tashkillashtirishni tubdan isloh qilishni talab etmoqda. Chunki, yangi zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash. Yangi pedagogik xodimlarni avvalgi pedagogik texnologiya asosida tayyorlash aslo mumkin emas. Shu bois, Yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqish, rivojlantirish va uni hayotga tadbiq etishga talaba-amaliyotchilarni o'rgatish alohida ta'kidlangan. Oliy ta'lim tashkiloti talabalarni stajirovkaga yuborishdan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Har bir talabaning pedagogik faoliyatga ijodiy va izlanuvchanlik bilan yondashishga, o'z faoliyatini tanqidiy baholashga, mustaqil bilim olishga bo'lgan talabchanlikni shakllantirish.

2. Bo'lajak o'qituvchining yangi jamiyat talablariga, mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga javob beradigan kasbiy mahoratlarini egallashiga yordam berish.

3. Talaba tomonidan institut auditoriyasida egallangan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, ularni talabalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlar jarayonida mohirona foydalanishga o'rgatish.

4. Talabalarni tashkilotdagi ta'lim –tarbiya ishlarining hozirgi davrdagi holatlari, yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish va o'rgatish.

Asosiy qism. Stajirovkaning birinchi haftasida Chirchiq Davlat Pedagogika Institutiga yetib borildi. Psixologiya kafedra mudiri Eshnayev Nortoji bilan uchrashildi, ular bizga stajirovka davomida yordam berish uchun ilmiy rahbar etib Dilmuradova Zilolani biriktirishdi. Biz ilmiy rahbar bilan yaqindan tanishdik va amaliyot davomida qilinadigan ishlar rejasini tuzib chiqdik. Psixologiya kafedrasida 3 nafar psixologiya fanlar nomzodi dotsent, 2 nafar psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PHD) dotsent va 4 nafar katta o'qituvchilar ish faoliyatlarini olib borishadi. Ikkinchi haftada Institutni ichki tuzilmasini va me'yoriy xujjatlar bilan tanishib

chiqildi. Ilmiy rahbar Z.Dilmuradova Institut ichki intizom qoidalari bilan tanishtirib chiqdi. Hafta davomida birlashtirilgan rahbarning darslari kuzatildi va dars o'tishning yangi metodlarini o'rganildi. Keyingi haftalar davomida ilmiy tadqiqot ishim bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sharoitida muammoning o'rganilganlik darajasining tahlili qilindi. Maxalliy olimlardan N.Jabborov "O'spirinlik yoshidagi bolalarda o'z-o'ziga baho berish", G.X.Eshmurodova "Shaxsning o'zini o'zi baholashning salbiy ijobiy jihatlari" va boshqa ko'plab olimlar o'z-o'ziga baho berish mavzusida o'rganib chiqishgan. Magistrlik dissertatsiyasini yozish uchun ilmiy va statistik ma'lumotlarni to'plandi va tadqiqot uchun tanlangan metodikalar o'tkazildi, Dembo-Rubinshteynning "O'z-o'zini baholash metodikasi" metodikasidan foydalanildi, bunda 120 nafar 1-kurs talabalari qatnashdilar.

**Dembo-Rubinshteynning "O'z-o'zini baholash" metodikasi
bo'yicha olingan natijalar (120 nafar)**

Yo'nalishlar	Sinaluvchilarni natijalari			
	Past baho	O'rta baho	Yuqori baho	Juda yuqori baho
Da'vogarlik darajasi	30%	70%	40%	20%
O'z-o'ziga baho berish darajasi	35%	80%	20%	10%

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, yosh ko'rsatgichi 19 yoshdan 30 yosh orasidagi sinaluvchi talabalarning o'z-o'ziga bergan baholari ayrimlarda juda past, bu o'ziga bo'lgan ishonchni ham pastligidan dalolat beradi. Ba'zi talabalarda esa o'z-o'ziga bergan baholari juda yuqori, bu ham nosog'lom baho ularni o'zlariga bo'lgan ishonchlari past bo'lgani uchun ham buni yashirish maqsadida o'zlariga yuqori baho berishadi. Bu ko'rsatgichlarga muvofiq testlarda past natija bergan talabalar bilan magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga mos ravishda tuzilgan maxsus korreksion dastur

asosida 4 hafta mobaynida psixologik terininglar tashkil etildi. Past va yo'qori natija bergan talaba qizlar nazoratga olindi. O'tkazilgan suhbat, psixologik terininglar natijasida ko'zlangan maqsadlarga erishish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari stajirovka o'tash jarayonida unversitetda tashlik etilgan turli xil ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarda faol qatnashib bordim. Bu tashkil etilga tadbirlarda ishtirok etib shuni xulosa va mulohaza qilish mumkinki, tashkilot tomonidan tashkil eyilayotgan har bir tadbir insonning o'zligini anglashga, qadryatlarni qadrlashga, ma'naviy ongimizni o'stirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri deb hisoblayman.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talaba stajirovka davomida nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llay olishni, talabalar bilan muloqot qilishni va tadqiqot turlari , uni o'tkazish usullari bilan tanishib chiqadi. Kelajakda oliy ta'limda ishlashni xoxlagan talabalar uchun stajirovka mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga javob beradigan kasbiy mahoratlarini egallashiga yordam beradigan jarayondir.

Foydalangan adabiyotlar

1. G'oziyev E Psixologiya.T.: "O'qituvchi" nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008.
2. Karimova V Psixologiya Toshkent., "Sharq", 2002 y.
3. Jurakulova D.Z. Psixologicheskoe osobennosti jadnosti u detey // Vestnik integrativnoy psixologii. – Yaroslavl. 2018. -№19. S-153-156. (19.00.00. №2). Tashkent Medical Academy Volume
4. Jurakulova D.Z Psixological health of children as a faktor of successful edication. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. 148-151. 2022.
1. Har bir talabaning pedagogik faoliyatga ongli, qiziquvchanlik bilan